

DONIYOROV B.N.

**BUXORO VOHASI AGROTSENOZLARIDA QUSHLARNING
BIOZARARLANISHDAGI ISHTIROKI VA UNING OLDINI OLISHGA
DOIR TAVSIYALAR**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI

BUXORO VOHASI AGROTSENOZLARIDA QUSHLARNING
BIOZARARLANISHDAGI ISHTIROKI VA UNING OLDINI OLISHGA
DOIR TAVSIYALAR

Buxoro-2025

Tavsiyanoma Buxoro vohasining g'oz, beda, donli va poliz ekilgan ekinzorlari, bog'lar va uzumzorlarida o'tkazilgan ilmiy kuzatishlar asosida tayyorlandi.

Tavsiyanomada Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi qushlarning zamonaviy tarkibi, uchrash maqomi, asosiy statsiyalar bo'yicha tarqalishi, moslashish yo'llari, ahamiyati, noyob va yo'qolib ketish arafasida turgan qushlarni muhofaza qilish, qushlarning biozararlanishdagi ishtirokiga doir ma'lumotlar va uning oldini olish bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan. Mazkur ma'lumlardan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi va qishloq xo'jaligi sohasi xodimlari, yosh olimlar, Oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrleri, agrotsenozlarda turli ekinlarni yetishtiruvchi yerdan foydalanuvchilar va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar hosilni qushlar ta'siridan himoya qilishda, biologik mahsuldorlikni hamda ekotazni saqlashda muhim ilmiy uslubiy qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Tavsiyanoma Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashida (2-sonli majlis, 2025-yil 25-fevral) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

So‘z boshi

Tarixiy taraqqiyot jarayoni oqibatida dunyo aholisi soni ortib bormoqda. Aholi sonining o‘sishi, insoniyat ehtiyojlari xilma-xillashishi va ko‘lami takomillashishiga olib kelmoqda. E’tiborli jihati shundaki, ehtiyojlarning sezilarli qismi antropogen landshaftlar hisobiga qondiriladi. Insoniyat tomonidan ehtiyojlarni qondirish yo‘lida o‘zgartirib, o‘zlashtirilgan mavjud agrolandshaftlardan ham tabiiy voqeylikni tushunib, tabiat qonunlari bilan hisoblashgan holda samarali foydalanilyapti deb bo‘lmaydi. Bu holat shu taqlid davom etadigan bo‘lsa, qolgan tabiiylik xususiyatiga ega mavjud landshaftlarga ham inson ta’siri yetadi. Oqibatda biotoplarning o‘rin almashishi, flora va faunaning o‘zgarishi yanada kuchayadi. Bunday faoliyat agrotsenozlar muhitini, shuningdek, hayotiy jarayonlari agrotsenozlar bilan bog‘liq bo‘lgan qushlarni ham chetlab o‘tmaydi. Ayniqsa, qushlarning tur tarkibi va shakllanish xususiyatlari, agrotsenozlar bo‘yicha tarqalishi, soni va ularning mavsumiy o‘zgarishlari, biologiyasi va ekologiyasi, kelib-ketish maqomi, ularning mavsumiy o‘zgarishlarga moslashishida o‘zgarishlar kuzatiladi. Bunday vaziyat odamlar bilan qushlar o‘rtasidagi ekologik munosabatlarda tabiiy-ijtimoiy muammolarni vujudga keltirib, ularni yumshatish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

So‘ngi yillarda agrotsenozlardagi doimiy kuzatiladigan o‘zgarishlarga qaramasdan qushlarning antropogen landshaftlarga kirib kelishi, yig‘ilishi, hayotiy jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq moslanishlari kuzatilmoqda. Natijada dehqonlar tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinzorlarida yetishtirilayotgan biologik mahsuldorlikka qushlarning sherik bo‘lish holatlari, aholi yashash joylarida ko‘p miqdorda yig‘ilib kuchli shovqin va antisanitar holatlarning shakllanishiga hissadorligi namoyon bo‘lmoqda. Bu holat odamlar bilan qushlar orasidagi munosabatlarni optimallashtirishni ko‘rsatmoqda.

Qushlar yashaydigan tabiiy landshaftlarda ro‘y beradigan antropogen xarakterdagi o‘zgarishlar Buxoro vohasi agrotsenozlarida ayrim qushlar sonining ortishiga va muammoli vaziyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarining zamonaviy tarkibi

Buxoro vohasi agrotsenozlarida qushlar tarkibining shakllanishi ekologogeografik xususiyatlarga bogʻliq holda kechgan. Bunga yer ustki qismining tuzilishi, havo oqimi, harorat, qushlarning kirib kelishi uchun agrotsenozlar atrofida turli suvliklar, daraxtzorlar, butazorlar borligi, tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlarga aylantirilganligi, turli xildagi agrotsenozlar, qushlar uchun ozuqaviy ahamiyatga ega ekin turlarini ekish, maydoni va boshqalarni kiritish mumkin.

Soʻngi nashrlarda qayd qilinishicha Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlarda 332 tur qushlarning uchrashi qayd qilingan (Toʻrayev, Xolboyev, Rayimov, Rahmonov, 2015). Kuzatishlar natijasida Buxoro vohasi agrotsenozlarida 16 turkum-84,2 foiz, 47 oilaga mansub-77,1 foiz, 211 tur-45,9 foiz qush uchrashi aniqlandi. Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi qush turlari Buxoro viloyati va unga chegaradosh hududlarda uchrovchi umumiy qush turlarining (332 tur) 63,6 foizini tashkil qiladi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi qushlarni uchrash xususiyatiga koʻra beshta guruhga ajratish mumkin: oʻtroq, uchib oʻtuvchi-uyalovchi, qishlovchi, uchib oʻtuvchi, tasodifan uchib keluvchi. Shundan oʻtroq qushlar 12 turkum, 18 oilaga mansub 32 tur-15,2 foiz boʻlib, oila va tur soni boʻyicha Chumchuqsimonlar-*Passeriformes* turkumi 5 oila, 18 tur bilan dominantlik qiladi. Uchib oʻtuvchi-uyalovchi qushlar 11 turkum, 27 oilaga mansub 63 tur-29,8 foiz boʻlib, oila va tur soni boʻyicha Chumchuqsimonlar-*Passeriformes* turkumi 10 oila, 27 tur, Rjankasimonlar-*Charadriiformes* 4 oila, 9 tur bilan dominantlik qiladi. Qishlovchi qushlar 4 turkum, 9 oilaga mansub 23 tur-10,9 foiz boʻlib, oila va tur soni boʻyicha Chumchuqsimonlar-*Passeriformes* turkumi 6 oila, 11 tur, Gʻozsimonlar-*Anseriformes* 1 oila, 7 tur bilan dominantlik qiladi. Uchib oʻtuvchi qushlar 10 turkum, 27 oilaga mansub 90 tur-42,7 foiz boʻlib, oila va tur soni boʻyicha Chumchuqsimonlar-*Passeriformes* turkumi 11 oila, 28 tur, Rjankasimonlar-*Charadriiformes* 4 oila, 29 tur, Lochinsimonlar-*Falconiformes* turkumi 3 oila, 10 tur bilan dominantlik qiladi. Tasodifan uchib keluvchi qushlar 3 turkum, 3 oilaga mansub 3 tur-1,4 foizdan iboratligi maʼlum boʻldi.

Buxoro vohasida uchrashi qayd qilingan qushlardan G'ozsimonlar turkumi-O'rdaklar oilasi 23 tur-10,9 % (38 turning 60,5 foizini), Rijankasimonlar turkumi-Loyxo'raklar oilasi 20 tur-9,5 % (31 turning 64,5 foizini), Chumchuqsimonlar turkumi-Shaqshaqlar oilasi 17 tur-8,1 % (37 turning 45,9 foizini) bilan dominantlik qiladi. Oila va tur soni kamligi bo'yicha Kakkusimonlar turkumining Kakkular oilasi, Sassiqqopishaksimonlar turkumining Sassiqqopishaklar oilasi va Qizilishtonsimonlar turkumining Qizilishtonlar oilasi bittadan tur-0,5 % ekanligi ma'lum bo'ldi.

Buxoro vohasida uchrovchi qushlarning 15 turkum-93,8 foiz, 36 oila-76,6 foizga mansub 95 tur-45,1 foizi uya qurib ko'payuvchi turlardir. Uya quruvchi qushlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi o'troq uya quruvchi qushlar-32 tur bo'lib, Buxoro vohasida uchrovchi qushlarining 15,2 foizini, ikkinchisi uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar-63 tur bo'lib, bu vohada uchrovchi qushlarning 29,9 foizini tashkil qiladi. Buxoro vohasida uya quruvchi qushlarning 61 turini hayotiy jarayonlari asosan turli suvliklar va ularning atrofida o'tsa, 34 turiniki donli ekin dalalariga, 26 turiniki paxta dalalariga, 39 turiniki bog'larga, 38 turiniki bedazorlarga, 33 turiniki uzumzorlarga va 26 turiniki poliz ekinzorlariga bog'liq. Uya qurib ko'payuvchi qushlardan 14 turi yuqorida nomlari keltirilgan agrotsenozlarda uchrovchi evribiontlardir. Aniqlangan o'n besh turkumga mansub uya quruvchi qushlar orasida chumchuqsimonlar turkumi vakillari tur soni nisbatan ko'pligi bilan dominantlik qilsa, tovuqsimonlar, kakkusimonlar, uzunqanotlar va sassiqpopishaksimonlar turkumlari vakillari tur soni kamligi bo'yicha vohada uy quruvchi qushlar orasida dominantligi aniqlandi.

Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarining faunasi xilma-xil va soni o'zgaruvchan bo'lib, bu xususiyat agrotsenozlarga bog'liq holda kechgan. Vohada dehqonlar ish faoliyati natijasida shakllangan ekinzorlar yashash muhiti sifatida ekologik va geografik xususiyatlari bilan tabiiy biotoplardan farq qiladi. Buni agrotsenozlar maydonining o'zgarishi, almashlab ekish, bir maydonga ikki-uch xil o'simlik navini ekish bilan tushuntirish mumkin.

Oxirgi 30 yil ichida tabiiy landshaftlarning madaniy landshaftlarga aylantirish davom etayotganligi, ekin maydonlari kengayishi bilan bog'liq o'zgarishlar voha agrotsenozlari qushlari faunasi shakllanishiga ta'sir qilgan. Oqibatda Ko'k kaptar-*Columba livia*, Qumri-*Streptopelia decaocto*, Boyo'g'li-*Athene noctua*, Qora uzunqanot-*Apus apus*, Qirg'oq qaldirg'ochi-*Riparia riparia*, Qishloq qaldirg'ochi-*Hirundo rustica*, Ola chug'urchuq-*Sturnus roseus*, Mayna-*Acridotheres tristis*, Zag'izg'on-*Pica pica*, Go'ng qarg'a-*Corvus frugilegus*, Qorabosh vahmaqush-*Remiz coronatus*, Hind chumchug'i-*Passer indicus*, Dala chumchug'i-*Passer montanus* kabi turlar soni oshgan, Musicha-*Streptopelia senegalensis*, Ko'k qarg'a-*Coracias garrulus*, Sassiqlik popishak-*Upupa epops* kabi turlar soni kamaygan.

Muxtasar qilib aytganda, Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi qushlarning turkum va turlar bo'yicha xilma-xilligini vohadagi farqlanuvchi agrotsenozlar va ularda shakllangan ekologik sharoit bilan tushuntirish mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida uya quruvchi turlar bilan agrotsenozlar orasida ma'lum muvozanat shakllangan, bu ko'zga ko'rinmas muvozanat aholi soni ko'payib borayotgan ayni damda insonlar uchun to'kin hayot garovidir. Zamonaviy qishloq xo'jaligini bunyod qilishda, qushlar va agrotsenozlar mutanosibligini ekologo-geografik holatdan kelib chiqib o'rinli tashkil qilish lozim. Aks holda qaysidir bir turning ko'payishi boshqa bir turning kamayishiga olib keladi. Bu esa, vohadagi ziरोatchilik, ovchilik va baliqchilikda iqtisodiy jihatdan qimmatga tushishi mumkin.

Buxoro vohasi agrotsenozlari qushlarining asosiy statsiyalar bo'yicha tarqalishi

Bugungi kunda jahon miqyosida antropogen omillarning avj olishi atrof muhitning muhim bioindikatorini hisoblangan qushlarning bioekologik holatiga ta'sir etmoqda. Ayniqsa, tabiiy landshaftlarning agrolandshaftlar bilan o'rin almashishi bir holatda qushlarning biologik va etologik holatlarida o'zgarishlarni yuzaga keltirib, turlar tarkibining keskin kamayishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib kelsa, ikkinchi bir holatda ornitofauna tarkibiga yangi turlarning kirib kelishiga, asosiy statsiyalar bo'yicha tarqalish xarakteri o'zgarishiga, qushlar jamoalari tarkibining yangilanib turishiga olib kelmoqda. Shu sababli, o'zlashtirilgan va ekologik inqirozga uchragan hududlardagi qushlarning turlar xilma-xilligini aniqlash, yashash muhitlarini saqlab qolish, ulardan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Dunyoda agrotsenozlar hududlaridagi qushlar xilma-xilligini aniqlash, biologik, ekologik va etologik moslashuv xususiyatlarini va uchrash maqomini o'rganishga ehtiyoj bor.

Buxoro vohasidagi ilmiy kuzatishlar o'tkazilgan agrotsenozlarni 6 xilga ajratdik. Ular g'o'za, beda, donli va poliz ekilgan ekinzorlar, bog'lar hamda uzumzorlardir.

G'o'za agrotsenozi ornitofaunasi tur tarkibi va uchrash holati

Buxoro vohasi agrotsenozlari maydoni suv bilan ta'minlanishiga ko'ra o'zgaruvchan bo'lib, bu holat g'o'za agrotsenozlarini ham chetlab o'tmaydi. Qolaversa, mamlakatimizda 2017-yildan boshlab o'simliklarni ekologik rayonlashtirishga e'tiborning kuchayishi paxta ekin maydonlarining 50-60 foizga qisqarishiga olib keldi.

Buxoro vohasi paxta dalalari qushlarini faunistik o'rganish orqali hayotiy jarayonlari paxtazorlar bilan bog'liq qush turlari aniqlandi, sistematik ro'yxati shakllantirilib, uchrash holati tahlil qilindi. Paxta dalalarida jami 8 turkum-50,0 %, 18 oila-38,3 % ga mansub 32 tur-15,2 % qushlar uchratildi. Jumladan, o'troq qushlar 13 tur-40,6 %, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 13 tur-20,6 %, uchib o'tuvchi qushlar 4 tur-4,4 %, qishlovchi qushlar 1 tur-4,3 %, tasodifan uchib keluvchi qushlar

1 tur-33,3 %. Bundan tashqari tur soni ko'pligi bo'yicha Lochinsimonlar turkumining Qarchig'aylar oilasi Dala bo'ktargisi-*Sircus cyaneus*, O'tloq bo'ktargisi-*Circus pygargus*, Soz bo'ktargisi-*Circus aeruginosus*, Toshqirg'iy-*Accipiter badius* turlari bilan, Kaptarsimonlar turkumining Kaptarlar oilasi Ko'k kaptar-*Columba livia*, Qumri-*Streptopelia decaocto*, Oddiy g'urrak-*Streptopelia turtur*, Musicha-*Streptopelia senegalensis* turlari bilan dominantlik qilsa, tur soni kamligi bo'yicha Sassiqqopishaksimonlar turkumining Sassiqqopishaklar oilasi Sassiqqopishak-*Upupa epops* turi bilan ustunlik qilishi ayon bo'ldi.

Beda agrotsenozi ornitofaunasi tur tarkibi va uchrash holati

Buxoro vohasidagi bedazorlarda 11 turkum-68,8 %, 29 oila-61,7 % ga mansub 59 tur-28,0 % qushlar uchrashi aniqlandi. Shundan o'troq qushlar 16 tur-50,0 %, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 22 tur-34,9 %, uchib o'tuvchi qushlar 14 tur-15,6 %, qishlovchi qushlar 7 tur-30,4 %. Mazkur agrotsenozda tur soni ko'pligi bo'yicha Chumchuqsimonlar turkumi Shaqshaqlar oilasi 6 tur, Qarg'alar oilasi 4 tur, Lochinsimonlar turkumi Qarchig'aylar oilasi 4 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Laylaksimonlar turkumi Ibislar oilasi, Rjankasimonlar turkumi Yilqichilar, Bigiztumchuqlar, Baliqchilar oilalari, Kakkusimonlar turkumi Kakkular oilasi, Uzunqanotlar turkumi Uzunqanotlar oilasi, Ko'kqarg'asimonlar turkumi Ko'kqarg'alar oilasi, Sassiqqopishaksimonlar turkumi Sassiqqopishaklar oilasi, Chumchuqsimonlar turkumi Zarg'aldoqlar, Moyqutlar, Pashshaxo'rlar oilalari 1 tadan tur bilan dominantlik qiladi.

Donli ekinzorlar ornitofaunasi tur tarkibi va uchrash holati

Donli ekinzorlarda jami 10 turkum-62,5 %, 20 oila-42,6 % ga mansub 45 tur-21,3 % qushlar uchrashi aniqlandi. Jumladan, o'troq qushlar 15 tur-7,1 %, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 19 tur-9,0 %, uchib o'tuvchi qushlar 9 tur-4,3 %, qishlovchi qushlar 2 tur-1,0 %. Mazkur agrotsenozda oila va tur soni ko'pligi bo'yicha Chumchuqsimonlar turkumi 8 ta oila va 19 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha G'ozsimonlar, Rjankasimonlar, Uzunqanotlar, Sassiqqopishaksimonlar turkumlari 1 tadan oila va tur bilan dominantlik qiladi.

Poliz ekinzorlari ornitofaunasi tur tarkibi, uchrash holati va soni

Buxoro vohasi poliz ekinzorlarida 7 turkum-43,8 %, 18 oila-38,3 % ga mansub 30 tur-14,2 % qushlar uchrashi aniqlandi. Jumladan, o'troq qushlar 14 tur-43,8 %, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 12 tur-19,0 %, uchib o'tuvchi qushlar 3 tur-3,3 %, qishlovchi qushlar 1 tur-4,3 %. Mazkur agrotsenozda tur soni ko'pligi bo'yicha Chumchuqsimonlar turkumi 14 ta oila va 47 tur, Lochinsimonlar turkumi 2 ta oila va 11 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Tovuqsimonlar, Rjankasimonlar, Kakkusimonlar, Sassiqqopishaksimonlar turkumlari 1 tadan oila va tur bilan dominantlik qiladi.

Bog'lar ornitofaunasi tur tarkibi, uchrash holati va soni

Buxoro vohasi bog'larida 10 turkum-62,5 foiz, 24 oila-51,1 foizga mansub 75 tur-35,5 foiz qushlar uchrashi aniqlandi. Jumladan, o'troq qushlar 14 tur-6,6 foiz uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 25 tur-11,9 foiz, uchib o'tuvchi qushlar 24 tur-11,4 foiz, qishlovchi qushlar 11 tur-5,2 foiz, tasodifan uchib keluvchi qushlar 1 tur-0,5 foiz. Mazkur agrotsenozda oila va tur soni ko'pligi bo'yicha Chumchuqsimonlar turkumi 14 ta oila va 47 tur, Lochinsimonlar turkumi 2 ta oila va 11 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Tovuqsimonlar, Rjankasimonlar, Kakkusimonlar, Sassiqqopishaksimonlar turkumlari 1 tadan oila va tur bilan dominantlik qiladi.

Uzumzorlar ornitofaunasi tur tarkibi, uchrash holati va soni

Uzumzorlarda jami 9 turkum-56,3 foiz, 24 oila-51,1 foizga mansub 47 tur-22,3 foiz qushlar uchraydi, shundan o'troq qushlar 16 tur-50,0 foiz, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 17 tur-27,0 foiz, uchib o'tuvchi qushlar 7 tur-7,8 foiz, qishlovchi qushlar 7 tur-30,4 foizni tashkil qiladi. Mazkur agrotsenozda oila va tur soni ko'pligi bo'yicha Chumchuqsimonlar turkumi 12 ta oila va 25 tur, Lochinsimonlar turkumi 2 ta oila va 6 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Uzunqanotlar, Sassiqqopishaksimonlar turkumlari 1 tadan oila va tur bilan dominantlik qiladi.

Bundan tashqari vohadagi turli suvliklar va ularning atrofida 10 turkum-62,5 foiz, 31 oila-66,0 foizga mansub 132 tur-62,6 foiz qushlar uchrashi aniqlandi. Shundan o'troq qushlar 20 tur-9,5 foiz, uchib o'tuvchi-uyalovchi qushlar 41 tur-19,4 foiz, uchib o'tuvchi qushlar 58 tur-27,5 foiz, qishlovchi qushlar 12 tur-5,7 foiz,

tasodifan uchib keluvchi qushlar 1 tur-0,5 foiz. Mazkur agrotsenozda tur soni ko'pligi bo'yicha Rjankasimonlar 42 tur, Chumchuqsimonlar 30 tur, G'ozsimonlar 23 tur bilan ustunlik qilsa, kamligi bo'yicha Kakkusimonlar 1 tur bilan dominantlik qiladi.

Buxoro vohasi agrotsenoz sharoitiga qushlarning moslashish yo'llari

Buxoro vohasi agrotsenozlari ornitofaunasini 2006-2024-yillar davomida tadqiq qilish natijasida qushlar quruqlik-havo va suv muhitida tarqalganligini guvohi bo'ldim. Ular mazkur muhitlarda mavjudligini saqlash, tur davomiyligini ta'minlash uchun hayotiy jarayonlarini amalga oshirishda turli xildagi moslanish reaksiyalarini tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zida shakllantirib, vaqt o'tishi bilan takomillashtirib kelgan. Xususan bunday moslanishlarni Buxoro vohasi agrotsenozlarida uchrovchi qushlarning kundalik harakatlarida, ko'payish, ko'chish, kushandalaridan himoyalaniish, turlararo biotik munosabat jarayonlarida kuzatish mumkin. Qushlar moslanishi bilan aloqador munosabatlarning shakllanishida muayyan muhitdagi daraxtlar, turli binolar, turli hayotiy shakldagi o'simliklarning hosilalari, kushandalari, destruktorelari va boshqalar xizmat qiladi.

Madaniy ekotizmlar tabiiy ekotizmlardan ekologik-geografik sharoiti bilan farq qiladi. Ekologik jihatdan mezo zonaga kirib, o'zida g'o'za, beda, donli va poliz ekilgan ekinzorlar, bog'lar va uzumzorlar hamda turli suvliklarning mavjudligi, himoyalaniishi va oziqlaniishi uchun agrotsenozlarda komponentlarning mo'lligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli bu yerda yashovchi qushlar xilma-xillashgan sharoitga yaxshi moslashuvchanligi, tabiiy landshaftlarga solishtirganda mo'l tur tarkibi bilan ajralib turadi.

Kuzatishlarimiz bo'yicha uya quruvchi turlar uyasini qurishda pana joylarni tanlashi aniqlandi. Jumladan, chumchuqlar uyasini ko'pincha turli binolarning teshik-tarqamlariga, ayvonlarning peshtoqiga, ko'priklar ostidagi yoriqlarga, qishloq qaldirg'ochlari turli binolarning peshtoqiga va ularning tarkibiy jihozlariga, ko'priklarning ostiga, zag'izg'on, uzun dumli qarqunoq, zarg'aldoq, go'ng qarq'a, haqqush, toshqirg'iy, jig'oltoy, g'urrak fanerofitlarga, qumri, musicha daraxtlarga, lianalarga, turli binolar va ularning tarkibiy jihozlariga, reklama afishalari orasiga, ko'k qarq'a, qirg'oq qaldirg'ochi, kurkunaklar, havorang ko'ktarg'oq suvga yaqin jar, ko'chki, tarixiy obidalardagi kovaklarga, sassiqpopishak turli bino va imoratlarning poli ostiga, ukki karerlardagi kovaklarga, boyo'g'li xaroba, tashlandiq imoratlardagi teshiklarga, cho'l sog'i zag'izg'onning eskirgan uyalariga, Buxoro

chittagi, oddiy chug'urchuq chumtol, chinor, tut kabi daraxtlarning yerdan unchalik baland bo'lmagan chuqur kovagiga, ko'chalarni yorituvchi chiroqlarning yerga yaqin ochiq joyiga, tashlandiq tosh binolarning teshik-tarqamlariga, zog'cha yerdan 20 metrdan balandda tok ustunlari uchki ochiq qismiga, mayna turli binolarning ochiq joylariga, suv quvurlari atrofiga o'ralgan g'iloqlar orasiga, pechka karnaklari ichiga, zag'izg'onning iniga, go'ng uyumlari orasiga, binolarning shifti va balkoni orasiga, jibljibonlar suv atrofidagi bekatlarga, ko'priklar ostiga, turli texnikalarga, tuyaqaldirg'ochlar ko'p qavatli tosh uylarning shiftiga, qora uzunqanotlar tarixiy va zamonaviy binolarning tomiga yaqin yoriqlariga, ko'k kaptar turli binolarning tunika va azbest bilan himoyalangan tomi ustiga, zag'izg'onning eski usti ochiq uyiga, qirg'ovul bug'doyzorlardagi chel ustiga, paxtazor va ariqlar atrofidagi roshlarda shakllangan chakalakzorlar orasiga, oddiy va qorabosh vahmaqushlar suvga yaqin ekilgan daraxtlarga qalpoqqa o'xshash uyalashga moslashganligi aniqlandi.

Buxoro vahasining ochiq, xilvat, sho'rdan oqargan tinj va suvga yaqin joylarida qushlardan yilqichi uchraydi. Mazkur hududda yilqichini tarqalishiga morfologik tusi chang rangli bo'lishi, ko'zlarining noodatiy chaqchayganligi, uzun oyoqlari gavdasini yerdan yuqori ko'tarib turishi kabi morfoanatomik xususiyatlari xizmat qiladi. Go'ng qarg'a, ola qarg'a, zog'cha, zag'izg'on, ko'k qarg'a, mayna kabi turlarni hammaxo'rliqi, ko'k kaptar, qumri, g'urrak, musicha, chumchuqlarning ozuqa ratsionida donli oziqaning ustunligi, chug'urchuqlar, kurkunaklar, qaldirg'ochlar havoda ham umurtqasiz oziqasini tuta olishi, sassiqpopichak qattiq qanotli qo'ng'izlar va ularning lichinkasi bilan oziqlanishi voqea agrotsenozlariga yashashiga imkon beradi.

Qaldirg'ochlar va uzun qanotlarning gavda shakli hamda nafiz qanotlari kun davomida havoda uchishiga, hatto oziqlanishiga qo'l keladi. Go'ng qarg'a, ola qarg'a, zog'cha, zag'izg'on, ko'k kaptar, qumri, musicha, mayna, dala chumchuq, soch, oq va niqobli jibljibonlar oziqlanishda yo'llar atrofida uchraydi. Atrofidagi turli texnikalarning shovqiniga, shakliga, hajmiga, odamlarga va ularning dinamik va statik holatiga moslashgan. Ba'zan oziqlanib yo'l o'rtasiga chiqib qolishi va

bioshikastlanishga sabab bo'lish holatlari ham kuzatildi. Quyidagi 1-rasmda qushlarning yo'l atrofida oziqlanishi va oqibati ifodalanadi.



1-rasm. Buxoro vohasi qushlarining yo'l atrofida oziqlanishi va oqibati.

Buxoro vohasi agrotsenozlari ornitofaunasini o'rganish oqibatida, doimiy o'zgartirib turiladigan madaniy ekotizmlardagi yangilanishlarga qushlar bioekologik va xulqiy moslashishi aniqlandi. Bunday moslanishlar voha agrotsenozlarida tarqalgan har bir qush o'zining populatsiya-turini barqarorligini ta'minlashda qo'l keladi.

Qushlarning agrotsenoz landshaftida ahamiyati

Qushlarning ahamiyati bilan bogʻliq holatlarni oʻrganish oʻz tarixiga ega (Sharipov, 1974; Ilichev, 1988; Bakayev va boshqalar, 2000; Jabborov, 2008).

Tadqiqot oʻtkazilgan gʻoʻza, beda, donli va poliz ekilgan ekinzorlar, bogʻlar va uzumzorlarda qushlarning ahamiyatini oʻrganishga eʼtibor yetarlicha qaratilmagan. Shu sababli, oʻzlashtirilgan madaniy hududlardagi qushlardan xalq xoʻjaligida samarali foydalanish yoʻllarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aholi soni ortgansari ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud resurslarga qiziqish, ularni oʻrganish va foyda-zararini nisbiy baholashga ehtiyoj ortmoqda. Albatta qushlar ham bioresurs sifatida bundan mustasno emas. Xususan xoʻjalikdagi ahamiyatini qiyosiy baholash, erishilgan natijalardan kundalik amaliyotda foydalanish muhim hisoblanadi. Qushlarning amaliy holatini tadqiq qilish orqali “muammoli” turlarni sonini boshqarish, muhofazatalab turlarni muhofazalash, agrotsenozlarga jalb qilish, muxtasar aytganda qushlar bilan odamlar oʻrtasidagi ekologik munosabatlarni yaxshilashga erishiladi.

Buxoro vohasidagi ilmiy kuzatishlar asosan gʻoʻza, beda, donli va poliz ekilgan ekinzorlar, bogʻlar va uzumzorlarda oʻtkazilgan boʻlsa, mavjud fasllarda ushbu agrotsenozlarda uchrovchi qushlarning doim foydali yoki faqat zararli tomonini koʻrmadik, ularning xoʻjalikdagi ahamiyati kundalik oziqlanish, dam olish, turlararo munosabatlar, tunashi, mavsumiy koʻpayishi, koʻchishida, oʻtroq qush turlarida qishlashi bilan bogʻliq hayotiy jarayonlarini oʻtashida shakllanishi guvohi boʻldik.

Qushlar keng tarqalganligi va tez-tez oziqlanishi bilan atrof-muhit ekologiyasida taʼsiri katta. Bu holat ularning serharakatligi bilan izohlanadi. Har qanday qattiq ozuqa ham 5-6 soatda ularning ovqat-hazm qilish yoʻlida hazm boʻladi. Hasharotxoʻr va yirtqich qushlar tabiatda hasharotlar hamda kemiruvchilarning sonini boshqarishda, oʻlik organik materiya tarkibiy miqdorini “biosanitar” sifatida nazorat qilishda, agrotsenoz landshaftida shakllangan va doim

yangilanib turadigan oziq zanjirida trofik bo'g'in sifatida ahamiyati bor. Quyidagi 2-rasmda Buxoro vohasida uchrovchi qushlarning ahamiyati tasvirlangan.



a



a1



a2




a3



a4



a5



a6



a7



a8



a9



a10



a11



b



b1



b2




b3



b4




b5



b6



b7



b8



v



v1



v2





2-rasm. Buxoro vohasida uchrovchi qushlarning ahamiyatiga doir tasvirlar.

Izoh: a-maynaning non bo'laklari bilan oziqlanib, muhit organik ifloslanishida hissadorligi, ya'ni tabiiy sanitar vazifasini bajaradi;

a1-maynalar g'o'za zararkunandalari sonini boshqarishda ishtirok qiladi;

a2- maynalar sinantrop tur bo'lib, dutburonlarni turli chiqindilar bilan to'ldiradi, ulardan ko'payishda foydalanadi, shovqini va to'plagan turli chiqindilari orqali antisanitar holat shakllanishiga sababchi bo'ladi;

a3-chorva oziqasi oziq birligi va sifati pasayishiga ta'sir qiladi;

a4-dutburonlarni bir mavsumda ekologo-geografik sharoitdan kelib chiqib 6-7-martagacha turli chiqindilar bilan to'ldiradi va ekotoksikologik sharoit shakllanishiga sababchi bo'ladi;

a5-kishilar tomonidan tashlab ketilgan organik chiqindilar mayna sonining ortishiga ta'sir qilmoqda;

a6-maynalar uya qurishda, oziqlanishda xonakilashtirilgan hayvonlar bilan munosabatga kirishib, turli ektoparazitlarning tarqalishiga ishtirok qiladi;

a7-dutburonlarni ko'payish uchun maynalar 27 xildan ortiq turli chiqindilar bilan jixozlaydi;

a8-maynalarning uzumchilikka sezilarli salbiy ta'siri bor;

a9-kuzda ekilgan bug'doylarni unib chiqmasdan maynalar oziqlanib, tubini kamayishiga sababchi bo'ladi;

a10-maynalar tunash joylarini axlati bilan ifloslantirib garbologik, ekotoksikologik, akustik va antisanitar holatga sabab bo'ladi;

a11-maynalar tut va uzum urug'lari bilan oziqlanib aktiv zooxoriyaga sabab bo'ladi;

b-musichalar uyalashda elektr chiroqlaridan foydalanib qisqa tutashuv, garbologik, ekotoksikologik va antisanitar ekologik holatlarni shakllanishiga ishtirok qiladi;

b1-ko'k kaptarlar donli ekinzorlarda uchrab, donlar bilan oziqlanib biologik mahsuldorlikka ta'sir qiladi;

b2-qumrilar donli ekinzorlardan oziq izlab, ular bilan oziqlanadi;

b3;b4-musichalar bozorlar tevarak-atrofidagi organik chiqindilar bilan oziqlanadi, oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslaydi;

b5-ko'k kaptarlar go'ng orasidan oziq izlab, deytrit oziq zanjiri trofik darajasiga aylanadi;

b6-ko'k kaptarlarning jo'jalari toshqirg'iyalar uchun o'lja;

b7-ko'k kaptarlar binolardan hayotiy jarayonlarida foydalanib bioshkastlanishga, binolarning nurashiga, garbologik, ekotoksikologik va antisanitar ekologik holatlarni shakllanishiga sabab bo'ladi;

b8-ko'k kaptarlar go'ng qarg'alar tunash jolaridagi qusqilar bilan oziqlanib sanitar vazifasini o'taydi;

v;v1-zag'izg'onlar uy hayvonlari parazitlari bilan oziqlanadi, ularning junlaridan uya qurishda foydalanadi;

v2-zag'izg'onlar chiqindilar bilan oziqlanib sanitarlik qiladi;

g-go'ng qarg'alar bug'doyni latent va virgil davrlarida ko'proq zararlaydi;

g1;g2-go'ng qarg'alar chiqindilar miqdoriga ta'sir qiladi va tunash joylarini axlati bilan ifloslaydi;

g3-go'ng qarg'alar tuproq unumdorligiga ta'sir qiladi;

g4-go'ng qarg'alar o'rik ko'chatchiligiga ta'sir qiladi;

g5;g6;g7;g9-go'ng qarg'alardan donli ekinzorlar zarar ko'radi;
g8;g10-go'ng qarg'alar axlati va qusqisi bilan muayyan muhitlar ifloslanadi hamda ular chiqindi oziq-ovqatlar bilan oziqlanadi;
d-botqoq bo'ktargilari organik chiqindilar bilan oziqlanadi;
y;y1;y2-qishloq qaldirg'ochlari xonadonlarda uchrab antisanitar holatga sabab bo'ladi.

Uzun dumli qarqunoq garbologik va bioindikator sifatida uyasining tarkibiy qismlari paxta tolasidan, sho'ra va yantoq tana qismlaridan, chiqindilardan, tut va tok tana qismlaridan, oq jo'xori, makkajo'xori tana qismlaridan, yulg'un qismlaridan, rangli simlardan ko'proq, madaniy o'simliklarning tana qismlaridan nisbatan kamroq foydalangan. Bu holatni Buxoro vohasi agrotsenozlarida g'o'zaning ko'p ekilishi, cho'llashish jarayonining kuchayganligi, muhitning kunsayin ifloslanib borayotganligi va oziq-ovqat sifatida yetishtirilayotgan madaniy o'simlik ekinzorlari qisqarib borayotganligi bilan tushuntirish mumkin.

Maynalar uya qurish uchun turli bino va predmetlardagi teshik-tarqamlarni shuningdek, zag'izg'onning eski uyasini tanlaydi. Ba'zan nazoratsiz ochiq qoldirilgan mo'rilar, karnaklar, ko'cha chiroqlari, laboratoriyadagi ko'p ishlatilmaydigan shkaf mo'rilarini, urbohududlardagi svetaforlarni tayanch ustunlarini ham chetda qoldirmaydi. Ko'payish joyi tanlangandan so'ng audio va video kaseta lentalari, turli shirinliklarning qadoqlari, selofan, polietilen, polipropilen iplar, rangli simlar, eski tashlandiq mato parchalari va iplari, qo'y junlari, agrotsenozlarda tarqalgan qamish, ajriq, soxta yantoq kabi qator begona o'tlarning tana qismlarini tashib keltiradi, ko'payish joyini jihozlaydi. Oddiy chug'urchuqlar maynalardan farqli ravishda boshqa qushlarning uyalarini tanlamay, balki tosh uylardagi teshiklarni, bog'lardagi tut, tol, chinor, shumtol kabi yaqqol ko'rinib turuvchi daraxtlarning kovaklarini chiqindilar bilan jihozlab, ko'payishni amalga oshiradi. Uzun dumli qarqunoq, mayna, oddiy chug'urchuq, hatto qumri va musichalar ham chiqindilarni bir yerga to'planishida, ekotizmlararo sayohatida ishtirok qiladi.

Musicha, mayna, qishloq va tuya qaldirg'ochlari insonlarga juda yaqin masofalarda uya qurib ko'payadi. Bu jarayonda ularning uya materiallari, ozuqasining bir qismi, axlati antisanitar holat shakllanishiga sababchi bo'ladi.

Ayniqsa, g' o' ng qarg' alar, maynalar insonlar tomonidan bunyod qilingan bog' lar, binolarda tunab qolish jarayonida tundan-tonggacha juda ko' p miqdorda atrofiga go' ngi va qusqilarini chiqarib, muhit atmosferasini badbo' ylanishiga, tongdan kechgacha kaptarsimonlarni mazkur hududda to' planishiga, kuchli shovqinga sababchi bo' ladi. Jumladan, tadqiqot hududining g' o' ng qarg' alar va maynalar tunaydigan 4 ta nuqtasida ularning shovqini SL-5868P shovqin darajasi o' lchagichi yordamida o' lchanganda shovqin kuchi o' rtacha 86 (77-89) dB ko' rsatgichga ega bo' ldi. Quyidagi 3-rasmda Buxoro vohasida uchrovchi qushlarning atrof-muhitni go' ngi va qusqilari bilan ifloslashi tasvirlangan.

Yo' ldosh turlardan go' ng qarg' a, zag' izg' on, mayna, ko' k kaptar, qumri, musichalar makkajo' xori, bug' doy, arpa, tariq, sholi, mosh, loviya, no' xat, grechka, javdar, oq jo' xori, suli, marjumak, yasmiq, kungaboqar, kunjut, yeryong' oq, olma, nok, behi, olcha, gilos, o' rik, shaftoli, yong' oq, bodom, anjir, uzum, balxi va shohtut, sharq tuya archasi, virgin archasi, xurmo kabilarning birlamchi biologik mahsuldorligi bilan oziqlanadi. Insonlar tomonidan isrof qilingan oziq-ovqat qoldiqlarini muhitda turib qolishini oldini oladi, o' lik organik materiya miqdorini kamaytiradi, ekotoksikologik jarayonni yumshatadi.

Turlararo biotik munosabatiga ko' ra Buxoro vohasi agrotsenozlarida Soz bo' ktargisi-*Circus aeruginosus* Zog' ora baliq-*Cyprinus carpio*, Suv ilon-*Natrix tessellata*, Mayna-*Acridothores tristis* soniga, Yilqichi-*Burhinus oedicnemus* Tez kaltakesak-*Eremias velox* soniga, Mayna-*Acridothores tristis* Cho' l yalong' och ko' zi-*Ablepharus deserti*, Beda barg filchasi-*Phytonomus variabilis*, Sharq buzoqboshi-*Gryllotalpa africana* soniga, Zag' izg' on-*Pica pica* Uy sichqoni-*Mus musculus*, Beda barg filchasi-*Phytonomus variabilis* soniga, Ko' k kaptar-*Columba livia* Salomalaykum-*Cyperus rotundus* soniga, Sassiqqopishak-*Upupa epops* Sharq buzoqboshi-*Gryllotalpa africana* soniga trofik daraja sifatida ta' sir qiladi.

Buxoro vohasi agrotsenoz landshaftida noyob va yo‘qolib ketish arafasida turgan qushlarni muhofaza qilish

Azaldan kam sonli qushlarni muhofazalash tadbirlari amalga oshirilgan bo‘lib, hozirgi vaqtga kelib bu hol dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Noyob va yo‘qolib ketish arafasida turgan qushlarni muhofazasiga oid bir muncha tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Jumladan, Qushlarning tur tahlili, biologiyasi va ekologik xususiyatlari hamda ahamiyatiga oid materiallar M.A. Abdullayev, S.B. Bakayev, A.F. Fayziyev, I.K. Nazarovlar tomonidan 1994-yilda nashr qilingan “Buxoro viloyatida uchraydigan nodir va O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan o‘simlik va hayvonlar” nomli ilmiy ommabob risolasida ham uchraydi. Unda 21 qush turi muhofaza talabligi bayon qilingan bo‘lib, Kurakoyoqlilar turkumi Birqozonlar oilasiga mansub 2 tur, Qizilqanotsimonlar turkumi Qizilqanotlilar oilasiga mansub 1 tur, Laylaksimonlar turkumi Laylaksimonlar oilasiga mansub 2 tur, G‘ozsimonlar turkumi O‘rdaklar oilasiga mansub 3 tur, Lochinsimonlar turkumi Skopalar oilasiga mansub 1 tur, Qarchig‘aylar oilasiga mansub 5 tur, Lochinlar oilasiga mansub 2 tur, Turnasimonlar turkumi Tuvaloqlar oilasiga mansub 3 tur, Kaptarsimonlar turkumi Bulduruqlar oilasiga mansub 1 tur, Chumchuqsimonlar turkumi Chumchuqlar oilasiga mansub 1 tur haqida ma’lumotlar uchraydi.

S. Nasullayeva, N. To‘rayeva, M.M. To‘rayevlar 2017-yil nashr qilgan “Buxoro viloyatida qushlarni muhofaza qilish tadbirlari, muammo va takliflar” nomli maqolasida qushlarning tur soni, muhofaza talabligiga ko‘ra maqomi va muhofazalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

J.M. Yorkulov 2021-yil “Zimovka orlana-beloxvosta *Haliaeetus albicilla* v nizovyx Zarafshana” nomli maqolasini yozib, unda Zarafshon daryosi va Buxoro viloyati cho‘l zonasidagi To‘dako‘l, Quyimazor, Sho‘rko‘l suv omborlarida ko‘p miqdorda suv qushlari to‘planishi, ular bilan birga uzun dumli suvburguti ham uchrashi hatto qishlashi bo‘yicha ma’lumotlarni yozgan.

M.M. To‘rayev, R.R. Raxmonov 2021-yil “Janubiy Qizilqum suvliklarida Vishildoq oqqush (*Cygnus olor* G.1789) ning tarqalish ekologiyasiga doir ma’lumotlar” nomli maqola nashr qilgan. Unda O‘zbekistonning cho‘l zonasi

suvliklarida Vishildoq oqqush (*Cygnus olor* G.1789) larning mavsumiy va hududiy tarqalish ekologiyasi, soni va uya qurishidagi o'ziga xos xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi ekologik omillar va bu ta'sirlarga qushlarning moslashish ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

J.M. Yorkulov 2022-yil nashr qilgan "Zimovka Lebedey shipuna *Cygnus olor*, klikuna *C. cygnus* i malogo *C. bewickii* na ozere Ayakagitma" nomli maqolasida ko'llarning xususiyatlari va unda oq qushlar qishlashi uchun qulay sharoitga egaligi, masalan, ekologik-geografik sharoit, minerallashgan tashlama suvlardan hosil bo'lganligi va doimiy shamollar esib turganligi uchun muzlamasligi, oziq uchun o'simliklarning mavjudligi va yildan-yilga haroratning qulay kelishi hamda qishlashda oq qushlar sonining o'zgarishi bayon qilingan.

J.M. Yorkulov, N.N. Azimov 2023-yili nashr qilgan "O vstrechax Orlana-dolgoxvosta (*Haliaeetus leucoryphus*) v sentralnom Uzbekistane" nomli maqolasida Uzun dumli suvburgutining muhofazasi, o'rganilganligi, uchrash joylari, muddati, soni, kamayish sabablari va qishlashiga doir ma'lumotlar asoslangan.

R.R. Raxmonov, N.B. Shoimova 2023-yil "Buxoro viloyatida noqonuniy ovlanadigan ayrim hayvon turlari xaqida yangi ma'lumotlar" nomli maqolasini nashr qilgan. Maqolada ovlashga ruxsat etilmagan, ayrim hayvon turlari, jumladan Zarafshon qirg'ovuli, Vishildoq oqqush, Qiziltomoq g'oz, Olaqanot, Oqbosh o'rdak kabi qushlarning bioekologiyasi haqida qisqa ma'lumotlar, ovlanish sabablari yozilgan.

J.M. Yorqulov akademik D.A. Azimov rahbarligida biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan "Zarafshon vodiysining kamyob va xavf ostidagi qishlovchi qushlari" nomli dissertatsiyasida O'zbekistonning Zarafshon vodiysi biotsenozlarida kamyob va xavf ostidagi qishlovchi qushlarning 8 turkumga mansub 33 turini aniqlab, Zarafshon vodiysi va unga tutash hududlarda qishlovchi qushlarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlarining biotoplar bo'yicha tarqalish xususiyatlari hamda oziqlanish biologiyasini o'rgangan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining faunasi o'ziga xos bo'lib, turlar xilma-xilligiga ko'ra boshqa hududlar bioxilma-xilligidan farq qiladi. XX asrning 50-yillaridan boshlab hozirgacha insoniyat tabiiy landshaftlarni antropogen landshaftlarga aylantirishi kuchayib kelgan. Oqibatda qo'riq yerlarda shakllangan antropogen yangilanishlar yovvoyi xilma-xillikni maxalliy xillari bilan almashishiga, siqib chiqarishiga, kamayib hatto yo'qolib ketishiga olib kelgan. Yildan-yilga biotsenozning rang-barangligi, qadimiyligi, endemikligi kambag'allashib, tur individlari bioshkastlanib nodir, kamyob xilga aylanyapti.

Turlarning yo'qolib ketishi tabiiy jarayon bo'lsada, tur hosil bo'lishi uzoq vaqt talab qiladi. Mazkur holatda voha hududi agrotsenozlaridagi muhofazatalab turlarni aniqlashga, ularni muhofaza qilish bo'yicha tezkor va samarali chora-tadbirlarni ko'rishga ehtiyoj bor.

Mamlakatimiz tabiiy va madaniy landshaftlarida birgina qushlarning 19 turkum, 61 oilaga mansub 460 turi uchrashi manbalardan ma'lum. Shundan 9 turkum-47,4 %, 19 oila-31,2 %, 52 tur-11,3 % qushlar O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"ga kiritilgan.

